



KORXONALARDA SOLIQLARNI REJALASHTIRISH VA UNING BOSQICHLARI

Xalilov Bahromjon Bahodirovich

*Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro, Iqtisodiyot
kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Maqolada korxonalarda soliqlar bo'yicha pul oqimlarini boshqarishni tashkil etishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan soliqlarni rejalashtirish jarayoni bilan tanishish asnosida, soliqlarni rejalashtirishning mazmun-mohiyati, korxonalar moliyasini boshqarish tizimidagi o'rni haqida to'xtalib o'tilgan*

Kalit so'zlar: *soliqlarni rejalashtirish, soliq imtiyozlari, soliq tortish obyekti, soliq to'lovchilari, soliqlarni rejalashtirish bosqichlari*

Soliqlarni rejalashtirish – qonunchilik tomonidan taqdim etilgan yengilliklar va soliq majburiyatlarini qisqartirishning boshqa qonuniy usullaridan foydalangan holda soliqlar va majburiy ajratmalarni kamaytirish bo'yicha belgilanadigan moliyaviy rejalashtirish turidir.

Soliqlarni rejalashtirishning ahamiyati soliqlar bo'yicha to'lovlarni maksimal darajada qisqartirish uchun qonunchilik yo'l qo'ygan usul va vositalar, shu jumladan qonunchilikdagi bo'shliqlardan soliq to'lovchilar foydalanishi natijasida uning prezumpsiya huquqi tan olinishida aks etadi. Bundan tashqari soliqlarni rejalashtirish soliqlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash bo'yicha chora-tadbirlarni oldindan belgilashda ham namoyon bo'ladi.

Korxonalarda soliqlarni rejalashtirishni tashkil etish orqali soliqlar va majburiy ajratmalarni qonun doirasida kamaytirish imkoniyatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- soliqqa tortish obyekti bo'yicha (masalan, davlat lotereya va obligatsiyalaridan daromadlar, omonatlar bo'yicha foizlar);
- soliqqa tortish subyekti bo'yicha (masalan, mikrofirma va kichik korxonalar uchun investitsion soliq kreditining amal qilishi);
- soliqlarni hisoblash va to'lash usuli bo'yicha (masalan, kadastrli usulda soliq to'lash inflyatsiya sharoitida korxona uchun foydali hisoblanadi);
- soliqqa tortish tizimlari ko'rinishlari bo'yicha (masalan, aksiyalar, obligatsiyalar va bank depozitlaridan daromadlarni soliqqa tortishda turli xil stavkalarining qo'llanilishi);
- faoliyatni soliq yuki past davlatlarda tashkil etish orqali soliqlarni butunlay kamaytirish (offshor zonalar orqali soliqlarni kamaytirish).

Soliqlarni rejalashtirish qator elementlarga ega va ularni yaxshi bilish soliqlarni kamaytirishning barcha usullarini muvaffaqiyatli qo'llash imkoniyatini yuzaga chiqaradi. Buning uchun esa soliq qonunchiligini mukammal darajada bilish talab etiladi. Shundan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kelib chiqqan holda soliqlarni rejalashtirish elementlari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

1. Buxgalteriya hisobi va soliq hisobining muvofiqligi. Bunda buxgalteriya hisobi va soliq hisobi me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida bir-biriga qat'iy ravishda o'zaro muvofiq kelishi kerak. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari soliqqa tortish jarayonida asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin buxgalteriya hisobi va hisoboti korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini aks ettira olmaydi. Buxgalteriya va soliq hisoblarining o'zaro muvofiq kelmasligi investitsion qarorlar qabul qilishda, soliqlarni rejalashtirishda keskinlikni yuzaga keltirishi mumkin. Korxona hisob siyosati orqali buxgalteriya hisobi va soliq hisobining o'zaro mos kelishini ta'minlash lozim.

2. Soliq imtiyozlari va ularning shartnomalar tuzish jarayoniga ta'sirini baholash. Buni yagona soliq to'lovi to'lovchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lish holatidan kelib chiqqan holda izohlash mumkin. Ya'ni, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi hisoblanganda erishiladigan natija va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan holatda erishiladigan natija o'zaro solishtiriladi.

3. Ichki soliq nazoratini tashkil etish. Soliq hisob-kitoblaridagi va moliyaviy hisobotlardagi xato va kamchiliklarning soliq tekshiruvlari o'tkazilgunga qadar ichki soliq nazorati orqali aniqlanishi korxonaga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan moliyaviy jarimalarning oldini oladi.

4. Soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha to'lov kalendarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

5. Imtiyozli soliq rejimlari (offshor zonalar) qo'llaniladigan soha va hududlarni o'rganish.

6. Korxonalarda soliqlarni boshqarish bo'yicha tahliliy hisobot tayyorlash.

Soliqlarni rejalashtirishni tashkil etishda yuqorida tanishib chiqqan soliqlarni rejalashtirish elementlarining har birini e'tiborga olgan holda bir-biri bilan o'zaro bog'langan soliq majburiyatlarining pasayishini kafolatlaydigan bir nechta bosqichni e'tiborga olish lozim. Agarda korxonalar yangi tashkil etilish arafasida bo'lsa soliqlarni rejalashtirish strategik, joriy va operativ rejalashtirish asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunda korxonalarda soliqlarni rejalashtirishning alohida bosqichlari sifatida quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

Birinchi bosqich – biznesni tashkil etish haqidagi fikrning paydo bo'lishi, maqsad va vazifalarning qo'yilishi, shuningdek, qonunchilik tomonidan taqdim etilgan soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyati haqidagi savollarga javob topish (mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib qaror qabul qilish).

Ikkinchi bosqich – korxonaning ishlab chiqarish va boshqaruv binolarini, shuningdek, uning filiallarini, sho'ba korxonalarini va boshqaruv organlarini joylashtirishning soliq to'lash nuqtai nazaridan foydali variantlarini tanlash. **Uchinchi bosqich** – yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklini tanlash va uning soliqqa tortish rejimi bo'yicha paydo bo'ladigan munosabatlarini aniqlash.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

To'rtinchi bosqich – korxona soliq to'lovchi sifatida barcha imtiyozlarni tahlil qilish orqali soliqqa tortish tizimidagi barcha rejimlar tarkibini o'rganib chiqish. Natijada o'tkazilgan tahlil asosida tanlangan soliqqa tortish rejimidan foydalanish rejasini ishlab chiqish.

Beshinchi bosqich – tanlangan soliqqa tortish rejimini hisobga olgan holda korxonaning shartnomaviy munosabatlari tizimini ishlab chiqish. Bunda soliq oqibatlarini hisobga olish uchun mumkin bo'lgan shartnoma shakllari (ijara, pudrat, savdo-xarid, tekin xizmat ko'rsatish va boshqalar)ni rejalashtirish amalga oshiriladi. Bularning barchasi xo'jalik subyekting shartnomalar tizimini tashkil qiladi.

Oltinchi bosqich – moliyaviy va soliq hisobini yuritishda asos bo'lib xizmat qiluvchi tipik xo'jalik operatsiyalarini tuzish bosqichi. Bunda soliq bo'yicha har xil vaziyatlar, mumkin bo'lgan yo'qotishlar, shartli jarimalar va boshqa sanksiyalar natijasidagi moliyaviy ko'rsatkichlar tarkibi tahlil qilinadi va rejalashtiriladi. **Yettinchi bosqich** soliqlarni hisoblash va to'lashning to'g'riligi bo'yicha kam xarajatli soliq hisobi va nazoratini tashkil etish bilan bevosita bog'liq. Xatolarga yo'l qo'yish bilan bog'liq risklarni kamaytirishning asosiy usuli soliq hisob-kitoblarini ichki nazorat qilish texnologiyasidan foydalanishdir.

Yuqorida soliqlarni rejalashtirish orqali korxonalarda soliqlarni qonun doirasida kamaytirish elementlari, yo'nalishlari haqida fikr yuritdik. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirishning samarali amal qilishi davlat byudjeti daromadlarining qisqarishiga ham sabab bo'ladi. Bunday holatda korxonalarda soliqlarni rejalashtirishni chegaralash bo'yicha davlat tomonidan ham qator chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahodirovich, K. B. (2024). EXTERNAL FINANCING SOURCES FOR BUSINESSES. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 119-124.
2. Khalilov, B. B. (2024). MANAGERIAL ACCOUNTING-THE LANGUAGE OF BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 249-255.
3. Bahodirovich, K. B. (2024). FINANCIAL LEVERAGE RATIOS AND ANALYSIS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 418-426.
4. Bahodirovich, K. B. (2023). EVOLUTION OF THE AUDITING PROFESSION IN THE SMART MACHINE AGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 450-454.
5. Xalilov, B. (2024). ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 747-753.
6. Bakhodirovich, K. B. (2023). International accounting models and their characteristics in the conditions of innovative economy. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 56-60.
7. Xalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 3(1), 754-758.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

8. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 877-882.
9. Khalilov, B. B. (2024). INTERNATIONAL ACCOUNTING ANALYSIS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 740-745.
10. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.
11. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 974-978.
12. Bahromjon, X., & Nargiza, N. (2023). THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS. *Modern Science and Research*, 2(10), 805-811.
13. Bahodirovich, K. B. (2024). RISK-BASED FINANCIAL INSTRUMENTS: THEORIES AND CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 373-378.
14. Egamberdiyeva, S. R., Qodirov, F. I., & Shopiyev, R. R. (2022). BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTLARINI MHXS GA UYG 'UNLASHTIRISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 353-358.
15. Abidovna, A. S. (2024). COMMUNICATION PROCESS MANAGEMENT AS A TOOL TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MODERN ORGANIZATIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 211-217.
16. Abidovna, A. S. (2023). Special directions of tourism development in Bukhara region: problems and solutions. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 51-55.
17. Supiyevna, B. M. (2024). O'ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI ISH BILAN BAND ETISH YO'LLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 78-84.
18. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 379-385.
19. Jumayeva, Z. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA UNING AHAMIYATI. *Modern Science and Research*, 3(6).
20. Bustonovna, J. Z. (2024). DEVELOPMENT OF DIGITAL ECONOMY AND ITS PROSPECTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 285-291.
21. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE.
22. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KADRLAR BOSHQARUVI XUSUSIY OTMLARDA: XUSUSIYATLARI, YONDASHUVLARI VA MUAMMOLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 70-77.
23. Shadiyev, A. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS. *Modern Science and Research*, 3(8), 10-18.
24. Alisher, S. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 366-372.
25. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.

26. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.

27. Hakimovich, T. M. (2024). Personalni Rag'batlantirish. *Miasto Przyszłości*, 53, 524-531.

28. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY BOSHQARUV VA RAQAMLASHTIRISH.

29. To'rayevna, S. N. (2023). YANGI IQTISODIYOTDA RAQAMLI MEHNAT.

30. Sodiqova, N. (2024). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION SIYOSAT VA UNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).

31. Tohir o'g'li, M. T., & To'rayevna, S. N. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSION SIYOSAT. ZAMONAVIY TA'LIMDA FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 45-53.

32. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.

33. Akbarovna, N. N. (2024). Oliy Ta'lim Muassasalarining Innovatsion Faoliyat Natijalarini Tijoratlashtirish Muammolari Va Ularni Hal Etish Yo 'LLari. *Miasto Przyszłości*, 54, 857-866.

34. Akbarovna, N. N. (2023). MULKCHILIK MUNOSABATLARINING JAMIYATDAGI TUTGAN O'RNI.

35. Naimova, N. (2024). THE COUNTRY'S ECONOMIC POTENTIAL IN DIGITAL ECONOMY AND E-COMMERCE DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 234-239.

36. Akbarovna, N. N. (2023). BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIYOTDA TURGAN ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 517-520.

37. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.

38. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.

39. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY FOR ASSESSING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 51, 191-195.

40. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 715-720.

41. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

42. Djurayeva, M. S. (2024). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF A MODERN ENTERPRISE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 222-227.
43. Sadillovayeva, D. M. (2024). ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE DEVELOPMENT OF THE MODERN ECONOMIC SYSTEM. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 241-248.
44. Sadullayeva, D. M. (2024). BASICS OF DIGITAL MARKETING. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 160-166.
45. қизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационный журнал, 6(14).
46. Nafisa, R. (2024). Formation of a Strategy for Sustainable Development of the National Economy. *Miasto Przyszłości*, 54, 764-771.
47. Rakhmonkulova, N. (2024). Prospects for the Development of the Economy of Uzbekistan. *JOURNAL OF INTELLECTUAL PROPERTY AND HUMAN RIGHTS*, 3(10), 37-44.
48. Lolaxon, R. (2024). THE ROLE OF MARKETING STRATEGIES IN TOURISM POTENTIAL OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 230-240.
49. Lolakhon, R. (2024). APPLICATION OF THE 4P CONCEPT IN TOURISM. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 138-145.
50. Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalb Qilishda Soliqlarning O' Rni. *Gospodarka i Innowacje*, 53, 205-213.
51. Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalb qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.
52. Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
53. Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalb Qilish Va Boshqarishning O' Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, 53, 1231-1237.
54. Azimov, B., Toshev, F., & Raximova, D. TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA.
55. TEMPUS, I. (2016). Towards the Modernisation of Higher Education InstitutionS in Uzbekistan (MATChES). *TEMPUS*, 4, 2007-2013.
56. Azimov, B. F., & Gulomov, O. H. (2017). Organizational structures of innovation support services: inter-organizational cooperation associations. *Инновационное развитие*, (6), 35-37.
57. Akhmedov, Y., Asadov, S., & Azimov, B. (2022, December). Two-sided estimation of linear approximation error second-order hypersurfaces. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 2388, No. 1, p. 012124). IOP Publishing.

